



«LIRIK KECHINMA VA BADIY SHAKLLAR»

Fayzullaeva Sayatxan Uzakbaevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali "Ijtimoiy- gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Masharipova O'g'iljon Azimboy qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali "Kutubxona – axborot faoliyati" 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14010959>

Tayanch so'zlar: lirik kechinma, shariyat, lirik qahramon, she'r, ichki forma.

Ключевые слова: лирическое возбуждение, поэзия, лирический герой, стихотворение, внутренняя форма


Key words: lyrical excitement, poetry, lyrical hero, poem, inner form

Dunyo adabiyotshunosligida lirika va lirik keshinmaning kitobxon dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini, poetik xususiyatlarini maxsus o'rganish natijasida boy tajriba to'plangan. Shu boisdan bugungi kun talabi asosida milliy badiiy meroslarimizni, shu jumladan, hozirgi qoraqalpoq nazmida lirik kechinmalar mohiyatini, uning motivlarda tasvirlanishini, poetik obraz orqali berilish xususiyatlarini dunyo adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy konsepsiyalari asosida o'rganish, uning yangi qirralarini ochib berish, shoirlarning lirik kechinmalarni tasvirlashdagi mahoratini aniqlash, shuningdek, tuyg'u va fikrning tahlili to'g'risida shakllangan g'oya va tajribalarni ma'lum darajada boyitib borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Lirik kechinmaning janrlar poetikasiga ta'siri masalasi rus olimi M.L.Grinbergning «Lirikaning uch qirrasi» [1] ishida, o'zbek adabiyotshunosi J.Turdimovning «Lirik kechinma tabiati» mavzusidagi dissertatsiya ishida [2] ko'rib chiqilgan. Qoraqalpoq adabiyotshunosi Q.O'razimbetovning «Hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy shakllarning evolutsiyasi va tipologiyasi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining xulosalari va monografiyasi [3] maqolada keltirilgan masalani o'rganishda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Iste'dodli shoirlar B.Seytaev, O.Satbaev, M.Jumanazarova va P.Mirzabaevalarning she'riyatida lirik kechinma mohiyatini jahon adabiyotshunosligi ilmiy-nazariy konsepsiyalari asosida o'rganish, ijodkor mahoratini o'rganish qoraqalpoq adabiyotshunosligi istiqbolli dasturlaridan biri sanaladi.

Poetik asar mazmunini lirik kechinma tahkil qilishi, bir qator she'r (monostix) da, hajmi lirik asar – his-tuyg'u va kechinmalar asosida yuzaga kelishi maqolada aniqlandi. Shoir tarixiy, ijtimoiy yoki tabiiy hodisalar asosida





paydo bo'lgan ichki kechinmalarini kitobxonga yetkazib berishda tegishli janrga murojaat qilishi ma'lum bo'ladi.

O.Satbayevning «Sel yuvgan deraza...» she'ri uch satrli bandlardan iborat. Shoirning tabiiy hodisa va real turmush timsolida inson ko'nglini tasvirlayotganligi oydinlashadi. She'rdagi ichki kechinmalarning she'r qatorlariga ta'siri shundan iboratki, uch qatorli qisqa bandlarda shoir kayfiyatining tushkun holatini anglatadi.

Kuzgi dala jimjit, juda jimjit,
Jon saroyim jimjit, barchasi jimjit,
Ko'ngilsiz deraza tortadi hijil. [4]

So'nggi besh qatorli bandda yomg'irdan so'nggi ochilgan quyoshdek shoir kayfiyati ham ko'tariladi va kechinmalari uch yoki to'rt qatorga joylashmay beshinchi qatorni ham talab etib turadi.

Mazkur faslda shoirlarning to'rt qatorli she'rlarini emas, to'rtlik janriga xos bo'lgan she'rlari tahlilga tortiladi. To'rtliklarning asosiy xususiyatlaridan biri falsafiy fikrlarni keng va mazmunli tarzda bera olishidadir. [5] Shoir B.Seytaevning «Haqiqatlikka chekinish» (2017) nomli she'rlar to'plamida «Bo'ringing og'zi», «Qo'rqitning ko'li», «Dunyoning ishlari» nomli to'rtliklari o'rin olgan. «Dunyoning ishlari» to'rtligida janr xususiyatlari saqlanganini va yaxshi yozilganining guvohi bo'lamiz.

Dunyoning ishlariga hayron qolasan,
Xalturchiklarga eng zo'ri hurmatning,
«Xalq shoiri» va «laureat» bo'larsan,
Titkilab o'tirib-oq kitobini Fetning...[6]

To'rtlikda tezis – birinchi va ikkinchi qatorlarda shoir «xalturchik» ya'ni yolg'on shoirlarning hurmatga erishishiga hayron bo'ladi. Antitezis – uchinchi qatorda yolg'on shoir bo'lsa ham laureatga ega bo'lganligini, to'rtinchi qatorda rus adabiyotining taniqli vakili Afanasiy Afanasevich Fet singari adiblarning asarlaridan o'g'irlab olganligini ko'rsatadi. To'rtlikdagi shoirning ichki kechinmasi badiiy adabiyotdagi iste'dodsiz va maddohlarga achinish, g'azablanish tuyg'ulari paydo bo'lgan.

Shoir O.Satbaevning «Kallangni qizdirgan achchiq sharobdan» deb boshlanadigan to'rtligida berilgan ichki kechinmada shoir mastlik, ayshishratdan kuyunadi. Bunda sharob ichish bilan bekor, maqsadsiz, orzusiz umr surishning zavoli haqida ham fikr yuritadi. Bu mazmundagi she'rni biz Sh.Seytovning ijodida ham («Sen ichib qo'ygansan» she'rida) uchratamiz.





Shoir M.Jumanazarovanning «Ketmoq uchun kelganman» she'riy to'plamida to'rt qatorli she'r e'tiborimizni tortdi. To'rtlikda shoir o'ziga-o'zi tushunmayotganidan emas, balki tashqi subyektiv va obyektiv omillarning o'z tushunchasiga mos kelmayotganligidan noliydi. Shoir P.Mirzabaevanning «Ishq torlari» to'plamiga faqat bir to'rtligi kiritilgan. Bunda vaqt falsafasi haqida badiiy so'z yuritiladi. Shoir bekorga ketgan vaqtini aytib vaqtni o'tkazmaslikni bayon etish orqali vaqt xronotopini topqirlik bilan qo'llana olgan.

Bekorga vaqtingni sarf etma, do'stim,

Bekorga sarf etgan vaqtingni aytib.

Yurganlar kammikan bu manzillarda


Maqsadsiz safarning tashvishin tortib... [7].

Hozirgi qoraqalpoq poeziyasida biz tahlilga tortgan shoirlar B.Seytaev, O.Satbaev, M.Jumanazarova va P.Mirzabaevalarning ijodida beshliklar, oltiliklar, sakkizliklar va o'nliklar poetik shakily izlanishlar sifatida uchraydi. Shoir M.Jumanazarovanning ijodkorlik uslubiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri uning o'z kechinmalarini to'lg'ov janrida tasvirlashidir. Uning «Suyunbika» (tarixiy to'lg'ovi), «Norasida», «Ernazar Alako'zning faryodi», «Arzay qizim, oy qizim», «O'rtaga qo'yib telpakni», «Yot bo'ldin-ku, qarog'im», «Muhabbat haqida to'lg'ov» va «O'tesh shoirning aytganlari» to'lg'ovlari tahlilga tortildi.

Shoir P.Mirzabaevanning «Bekinmachoq o'ynab yurganmiz talay», «Dunyoning kengligi bir pullik narsa», «Soat to'xtab qoldi. Buzildi birdan», «Har kim bir narsani yo'qotib yashar», «Farishta bo'lib yashash juda qiyin» deb boshlanadigan va boshqa sakkizliklari kompozitsiya jihatidan, ikki bo'limdan iborat, birinchi bo'limda dunyoni obyektiv jihatdan ko'rsatadi, ikkinchi bo'limda esa shu obyektiv olamga subyektivlik tushunchalarni parallel qo'yib tasvirlanadi hamda lirik qahramonning ichki kechinmasi ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гринберг М.Л. Три грани лирики. – М.: Художественная литература, 1985.
2. Турдимов Ж.Б. Лирик кечинма табияти: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1999.
3. Оразымбетов Қ. Ҳозирги қорақалпоқ лирикасында кәркем формалардың эволюциясы ҳам типологиясы. – Нөкис: Билим, 2004.
4. Сәтбаев О. Ай сығалайды. (Қосықлар ҳам поэма). – Нөкис: Қорақалпоқстан, 1992. – Б. 14-15.
5. Оразымбетов Қ. Ҳозирги қорақалпоқ лирикасында кәркем формалардың эволюциясы ҳам типологиясы. – Нөкис: Билим, – Б. 77.
6. Сейтаев Б. Шынлыққа шегинис. – Нөкис: Билим, 2017. – Б. 21.





7. Мырзабаева П. Ышқы тарлары. – Нөкис: Қорақалпоқстан, 1985. – Б.
- 10.

